

"TASDIQLAYMAN"

**O'zbekiston Respublikasi
Kambag'allikni qisqartirish
va bandlik vaziri**



B.Zaxidov

7 avgust 2026 yil.

**Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligining 2026-yilda budjet
mablag'laridan foydalanishi bilan bog'liq maqsadli indikatorlarning
II-chorak yakuni ijrosi yuzasidan o'tkazilgan o'rganishga oid**

X U L O S A

18-30-son

7 avgust 2026 yil.

Toshkent shahri

O'zbekiston Respublikasi Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirining 2026-yil 6-iyuldagi 255-son buyrug'i bilan tasdiqlangan ishchi guruh tomonidan joriy yil 8-13-iyul kunlari Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligining 2026-yil uchun budjet mablag'laridan foydalanish bilan bog'liq maqsadli indikatorlarining II-chorak ijrosini baholash maqsadida, o'rganish o'tkazildi. O'rganish vazirlik markaziy apparati tarkibiy bo'linmalari tomonidan taqdim qilingan hujjatlar o'rganilib quyidagilar

A N I Q L A N D I:

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 26-dekabrda "O'zbekiston Respublikasining "2026-yil uchun O'zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to'g'risida"gi O'RQ-1105-sonli Qonuni ijrosini ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-388-sonli qarorida 2026-2028-yillar uchun Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligining budjet xarajatlari va rivojlantirish dasturlarining maqsadli indikatorlari belgilangan.

Budjet xarajatlari

Mazkur qarorga asosan vazirlikka 2026-yil uchun budjetdan 582,8 mlrd so'm mablag' rejalashtirilgan bo'lib, ushbu mablag'lar I-guruh xarajatlariga 58,6 mlrd so'm, II-guruh xarajatlariga 14,6 mlrd so'm hamda IV-guruh xarajatlariga 509,6 mlrd so'm tashkil qiladi.

Rivojlantirish dasturlari strategik maqsadlari

Kambag'allikni qisqartirish dasturini amalga oshirish, ishsizlikni qisqartirish maqsadida aholini ish bilan ta'minlashning faol dasturlarini amalga oshirish, ishsizlarga o'z vaqtida yordam ko'rsatishni ta'minlash va norasmiy bandlikni rasmiylashtirish, shuningdek, xodimlar huquqlarini himoya qilish va ish beruvchilar bilan tegishli hamkorlikni yo'lga qo'yish.

Joriy xarajatlar bo'yicha yakuniy natija ko'rsatkichlari

Yakuniy natija ko'rsatkichlari 3 ta yo'nalishda belgilangan. Shundan ikkitasi, ya'ni yil yakuni bilan kambag'allik darajasi hamda ishsizlik darajasini 4,5 foizga kamaytirish.

Shuningdek, yangi o'zini o'zi band qilgan shaxs sifatida ro'yxatga olinganlar soni rejasi 300 ming nafar bo'lib, birinchi yarim yillikda **166 061 nafar (55%)** fuqarolar o'zini o'zi band qilgan.

Bevosita (to'g'ridan-to'g'ri) natija ko'rsatkichlari

Xodimlarning mehnat huquqlarini himoya qilish va ularning xavfsiz mehnat sharoitini ta'minlash bo'yicha o'rganishlar o'tkazish rejasi 22 000 dona bo'lib, birinchi yarim yillikda **10 223 dona (46%)** o'rganishlar o'tkazilgan.

Ishsizlarni o'qitishni tashkil qilish rejasi 120 000 nafar bo'lib, birinchi yarim yillikda **73 631 nafar (61%)** ishsiz fuqarolar uchun o'qishlar tashkil qilingan.

Ishsiz fuqarolarga ishsizlik nafaqasini tayinlash bo'yicha 11 000 nafar, stipendiya tayinlash bo'yicha 8 000 nafar bo'lishi prognoz qilingan bo'lib, birinchi yarim yillikda **190 nafar (2%)** fuqarolarga ishsizlik nafaqasini tayinlangan va **3 074 nafar (38%)** fuqarolarga stipendiya tayinlanganligi ma'lum bo'ldi.

Elektron platformalar orqali ish topishni yo'lga qo'yish rejasi 25 000 nafar bo'lib, birinchi yarim yillikda **14 918 nafar** fuqarolar (60%) platformalar orqali ish topishgan. Videodarslar va qisqa videolar tayyorlash prognozi 1 200 dona bo'lib, birinchi yarim yillikda **682 dona (57%)** videodarslar va qisqa videolar tayyorlangan.

Hokim yordamchilari faoliyatini qo'llab-quvvatlash jamg'armasi mablag'larini shakllantirish dasturi tahlili.

Ushbu dastur uchun 300,0 mlrd so'm mablag' rejalashtirilgan bo'lib, birinchi yarim yillikda **161,0 mlrd so'm (53,7%)** sarflangan.

Yakuniy natija ko'rsatkichi:

Ishsiz aholini doimiy ish joylariga joylashtirish va ularning tadbirkorlik faoliyatini boshlashlari hisobiga band bo'lgan aholi soni prognozi 1 100 ming nafar bo'lib, birinchi yarim yillikda **504 ming nafar (46 %)** ishsiz aholini doimiy ish joyi bilan bandligi ta'minlandi.

Bevosita (to'g'ridan-to'g'ri) natija ko'rsatkichi:

2026-yil davomida 5 000 mingta aholi tomorqasidan foydalanishni hamda 160 ming gektar asosiy, takroriy, to'qsonbosti ekinlarni monitoring qilish belgilangan bo'lib, birinchi yarim yillikda **5 200 ta** aholi tomorqasida (104%) hamda 146 ming gektar maydonda (91%) monitoring ishlari olib borilganligi ma'lum bo'ldi.

"Mahalla yettiligi" qarori asosida ajratilgan ssudalar soni prognozi 32,0 ming bo'lib, birinchi yarim yillikda **11,9 mingta** fuqarolarga (37%) ssudalar ajratilgan.

Hokim yordamchisining tavsiyasi asosida ajratilgan kreditlar soni 200,0 ming hamda ajratilgan subsidiyalar soni prognozi 12,0 ming bo'lib, birinchi yarim yillikda **166,1 mingta** (83%) kreditlar, **5,9 mingta** (50%) subsidiyalar ajratilgan.

Kasb-hunar va tadbirkorlikka o'qishga yo'naltirilgan aholi soni prognozi 75 ming nafar bo'lib, birinchi yarim yillikda **32,1 ming nafar** (43%) fuqarolar o'qishga yo'naltirilgan.

Mahallada kichik ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish yo'nalishidagi mikroloyihalarni shakllantirish va amalga oshirilishiga ko'maklashish bo'yicha loyihalar soni 270 ming, jami yaratilgan ish o'rni 540 ming nafar etib belgilangan.

Birinchi yarim yillikda mahallada kichik ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish yo'nalishidagi **104,8 mingta** (39%) mikroloyihalar shakllantirilgan hamda ushbu loyihalar natijasida **249,0 ming nafar** (46%) ish o'rinlari yaratilgan.

Bandlikka ko'maklashish davlat jamg'armasiga transfert dasturi tahlili.

Yakuniy natija ko'rsatkichi sifatida 2026-yilda Kasb va xorijiy tillar malakasiga ega bo'ladigan fuqarolar soni 70 000 nafarga, Kasbiy malakasi oshadigan fuqarolar soni (kasb vaucher) yil yakuniga qadar 3 500 nafarga yetkazish belgilangan.

Birinchi yarim yillikda kasb va xorijiy tillar malakasiga ega bo'ladigan fuqarolarga **27 071 nafarni** (39%) tashkil etgan bo'lib, **Kasbiy malakasi oshadigan fuqarolarga (kasb vaucher)lar berilmagan.**

Bevosita (to'g'ridan-to'g'ri) natija ko'rsatkichi

Ishsiz yoki rasmiy daromadga ega bo'lmagan shaxslarga o'qitish uchun fuqarolarga berilgan vaucher soni prognozi 100 000 dona bo'lib, birinchi yarim yillikda fuqarolarga jami **69 859 dona** (70%) vaucherlar berilgan.

O'qitish, qayta tayyorlash va malaka oshirish uchun fuqarolarga berilgan "kasb vaucheri" soni 4 000 dona berilishi prognoz qilingan bo'lib, birinchi yarim yillikda **"kasb vaucheri" berilmagan.**

Ish beruvchilar va tijorat banklari buyurtmanomasiga ko'ra o'qitishga yo'llangan fuqarolar soni 20 000 nafar prognoz qilingan bo'lib, birinchi yarim yillikda **4 308 nafar** (22%) fuqarolar o'qitishga yo'llangan.

Pensiya jamg'armasiga qoplab beriladigan mablag'lar bo'yicha muddatidan oldin pensiya tayinlangan fuqarolar soni 550 nafarni tashkil etib, birinchi yarim yillikda **56 nafar (10 %)** fuqarolarga muddatidan oldin pensiya tayinlangan.

2026-yil davomida ishsizlik bo'yicha nafaqalar tayinlangan fuqarolar soni prognozi 2 200 nafar hamda stipendiya tayinlanganlar soni 8 000 nafar etib belgilangan bo'lib, birinchi yarim yillikda **190 nafar (9%)** ishsiz fuqarolarga nafaqalar hamda **3 074 nafar (38%)** fuqarolarga stipendiyalar tayinlangan.

Joriy yil davomida 800 dona subsidiyalar ajratish belgilangan bo'lib, birinchi yarim yillikda **454 dona (57%)** subsidiyalar ajratilgani ma'lum bo'ldi.

Dehqon xo'jaliklari va tomorqa yer egalari faoliyatini qo'llab-quvvatlash jamg'armasiga transfert dasturi tahlili.

Yakuniy natija ko'rsatkichi sifatida 2026-yilda tomorqasi sug'orish tizimi (tik quduq o'rnatish orqali) bilan ta'minlanadigan ijara yerlar (xonadonlar) soni prognozi 10 mingni tashkil etib, birinchi yarim yillik davomida **3,5 mingta (35%)** xonadon tomorqalari va ijara yerlari sug'orish tizimi bilan ta'minlangan.

Bevosita (to'g'ridan-to'g'ri) natija ko'rsatkichi

Tik quduqlar o'rnatish uchun subsidiya ajratilgan shaxslar soni rejasi 390 nafar bo'lib, birinchi yarim yillikda **95 nafar (24,4%)** shaxslarga subsidiya ajratilganligi ma'lum bo'ldi.

Fuqarolarga dehqonchilik malakasini o'rgatganlik uchun subsidiya ajratilgan usta dehqonlar soni 600 nafar, ko'cha va ichki tomorqasida uzumchilik (tok so'risi) tashkil etish uchun subsidiya ajratilgan oilalar soni 1 000 dona etib belgilangan bo'lib, birinchi yarim yillikda dehqonchilik malakasini o'rgatganlik uchun subsidiya ajratilgan usta dehqonlar soni **84 nafarni (14%)** hamda ko'cha va ichki tomorqasida uzumchilik (tok so'risi) tashkil etish uchun subsidiya ajratilgan oilalar soni **101 ta (10,1%)** ekanligi ma'lum bo'ldi.

Namunali xonadon tomorqasini tashkil etish uchun subsidiya ajratilgan xonadon soni 130 dona, namunaviy o'quv-tajriba yer uchastkalarini tashkil etish uchun subsidiya ajratilgan dehqon xo'jaliklari soni 84 dona etib belgilangan.

Birinchi yarim yillikda namunali xonadon tomorqasini tashkil etish uchun **87 dona (66,9%)**, namunaviy o'quv-tajriba yer uchastkalarini tashkil etish uchun **26 dona (31%)** subsidiyalar chiqarilgan.

Bundan tashqari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 4-yanvardagi 4-son Qarori (keyingi o'rinlarda — 4-sonli Qaror) bilan tasdiqlangan "O'zbekiston Respublikasida dasturiy budjetlashtirish tizimini joriy etishda budjet mablag'larini taqsimlovchilarning budjet dasturlarini ishlab chiqish, monitoringini yuritish va ularning samaradorligini baholash tartibi to'g'risida"gi Nizomning 26-bandida har bir budjet dasturiga mablag' taqsimlovchi organning buyrug'i yoki qarori bilan mas'ul shaxs (keyingi o'rinlarda — administrator) tayinlanishi, bunda budjet dasturi administratoriga budjet dasturi ijrosini ta'minlash,

monitoringini yuritish, o'z vaqtida hisobotlarni tuzish, tadbirlar uchun ajratilgan mablag'larning o'z vaqtida samarali va maqsadli sarflanishini nazorat qilish vazifasi yuklanishi;

28-bandida mablag' taqsimlovchi organning rahbari tomonidan budjet dasturlarining ijrosi bo'yicha hisobotlarni umumlashtirish vazifasi moliya-iqtisodiyot ishlari bo'yicha tarkibiy bo'linmaga yoki alohida tarkibiy bo'linmaga yuklanishi mumkinligi;

31-bandida mablag' taqsimlovchi organlarning tegishli tarkibiy bo'linmasi byudjet dasturlarining chorak va yillik ijrosi bo'yicha hisobotni umumlashtirgandan so'ng besh ish kuni ichida baholash uchun ichki audit xizmatiga taqdim etilishi belgilangan.

Yuqoridagilardan kelib chiqib,

TAKLIF QILINADI:

1. O'zbekiston Respublikasi Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirining 2026-yil 7-apreldagi 147-sonli buyrug'i bilan o'tkazilgan o'rganishni yakunlangan deb hisoblashni.

2. Vazirlik markaziy apparatining tegishli **tarkibiy bo'linmalar rahbarlari** 2026-yil uchun belgilangan maqsadli indikator ko'rsatkichlarini yil yakuni bilan o'liq bajarilishini ta'minlash maqsadida:

indikator ko'rsatkichlarini bajarilishi yuzasidan mas'ul xodimlarni belgilangan holda choraklar kesimida reja ishlab chiqilishini;

indikator ko'rsatkichlarini bajarilmaslik xavfi ma'lum bo'lgan hollarda ularni bartaraf etish hamda bajarish imkoniyati bo'lmagan indikator ko'rsatkichlarini o'zgartirish yuzasidan rahbariyatga asosli takliflar kiritishni;

har chorak yakuni bo'yicha maqsadli indikatorlar ijrosi bajarilishini muhokama qilib borishni.

3. **Moliyaviy resurslarni rejalashtirish va boshqarish departamenti, Tomorqa va dehqon xo'jaliklari yerlaridan foydalanish boshqarmasi** (F.Abdillazov) hamda **Kompetensiyalarni rivojlantirish va malakani baholash boshqarmasi** (T.Maxamatxo'jayev) maqsadli indikator ko'rsatkichlarining birinchi yarim yilligi bo'yicha bajarilishi **50 foizdan kam bo'lgan** hamda **2 ta** ko'rsatkichlar **umuman bajarilmaganligini** inobatga olib, belgilangan tartibda budjet dasturi ijrosini ta'minlashni, monitoringini yuritilishini, tadbirlar uchun ajratilgan mablag'larning o'z vaqtida samarali va maqsadli sarflanishini nazorat qilish choralarini ko'rishni.

**Ichki audit boshqarmasi
boshlig'i**



F. Azizov